



UDK: 81751

Dilafroz A. TO'XTAYEVA,

O'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

E-mail: dilafrozuktayeva1988@gmail.com, ORCID: 0009-0003-4853-4685

PhD M.Barotova taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA GRADUONIMIYA HODISASI: LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollari tarkibidagi leksemalarning graduonimik munosabatlari leksik-semantik va lingvopoetik jihatdan keng tahlil qilinadi. "Bilganing daryo bo'lsa, bilmaganing dengiz", "Toy mingan ot ham minar", "Kunning g'ami sahardan, yilning g'ami bahordan", "Kaptar bo'lib tug'ilgansan, qarg'a bo'lib o'lma", "Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi", "Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning chanog'i yirtilibdi", "Zargar ishini miskar o'ng'ay sanaydi", "Zulm eshikdan kirsas, insof teshikdan chiqadi" kabi maqollardagi darajalanish munosabatlari semantik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida maqollarda hajm, vaqt, yosh, imkoniyat, kasbiy mahorat hamda baholash semalari asosida shakllangan graduonimik qatorlar xalq tafakkurining obrazli ifodasini ta'minlashi aniqlandi. Shuningdek, graduonimiyaning ta'sirchanlik, obrazlilik, baholash va didaktik funksiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, semantik munosabat, leksema, maqol, darajalanish, paremiologiya, sema, leksikologiya, lingvopoetika, xalq og'zaki ijodi.

GRADUONYMY IN UZBEK FOLK PROVERBS: LEXICAL-SEMANTIC AND LINGUOPOETIC FEATURES

Annotation

This article provides a comprehensive lexical-semantic and linguopoetic analysis of the graduonymic relations of lexemes in Uzbek folk proverbs. The graduonymic relations in proverbs such as "If you know a river, if you do not know a sea", "A horse riding a pony will also ride", "The sorrow of the day comes from the dawn, the sorrow of the year comes from the spring", "If you were born as a pigeon, do not die as a crow", "Cold as a camel enters from a needle-hole", "Trying to walk like a stork, the sparrow's hip was torn" and others are semantically studied. The research reveals that the graduonymic series formed in proverbs based on the semantics of volume, time, age, ability, professional skill and evaluation provide a figurative expression of folk thinking. The linguopoetic functions of graduonymy – expressiveness, imagery, evaluation and didactic function — are also highlighted.

Keywords: graduonymy, semantic relation, lexeme, proverb, gradation, paremiology, sema, lexicology, linguopoetics, folklore.

ГРАДУОНИМИЯ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ: ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье проводится комплексный лексико-семантический и лингвопоэтический анализ градуонимических отношений лексем в узбекских народных пословицах. Исследуются градуонимические отношения в таких пословицах, как «Если то, что ты знаешь – река, то то, чего не знаешь – море», «Тот, кто ездил на жеребёнке, оседлает и коня», «Горе дня – с утра, горе года – с весны», «Ты родился голубем, не умирай вороной» и др. В результате исследования установлено, что градуонимические ряды, формирующиеся в пословицах на основе семантики объёма, времени, возраста, возможностей и оценки, обеспечивают образное выражение народного мышления.

Ключевые слова: градуонимия, семантические отношения, лексема, пословица, градация, паремиология, sema, лексикология, лингвопоэтика, фольклор.

Kirish. Tilning lug'aviy tizimida so'zlar o'rtasida turli semantik munosabatlar mavjud bo'lib, ulardan biri graduonimik munosabatdir. Graduonimiya (lot. gradus – daraja) bir semantik maydonga mansub birliklarning ma'lum belgi asosida darajalanishini ifodalaydi. O'zbek tilshunosligida graduonimiya masalalari sistem leksikologiya doirasida o'rganilib, so'zlar orasidagi nozik ma'no tafovutlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq maqollari esa milliy tafakkur va til boyligining eng muhim qatlamlaridan biri bo'lib, ularda graduonimik munosabatlar badiiy-estetik vazifani bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Xalqimizning boy madaniy merosi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarini o'rganish, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish – biz uchun eng muhim vazifadir». Aynan shu ruh bilan o'zbek xalq maqollarini lingvistik jihatdan tadqiq etish

dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maqollarda darajalanish vositasida fikrning ta'sirchanligi, umumlashma xulosa va obrazlilik kuchaytirilishi ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida H.Ne'matov, R.Rasulov, B.Mengliyev kabi olimlar graduonimik munosabatlarni paradigmatic semantik munosabatlarning muhim turi sifatida baholaydilar [1; 2]. Tilshunoslikda graduonimiya bir umumiy sema asosida o'zaro darajalanish munosabatiga kirishuvchi leksemalar tizimi sifatida talqin qilinadi. Graduonimik qator a'zolari voqelikdagi predmet, belgi yoki harakatning miqdoriy va sifat darajalarini ifodalaydi.

Xalq maqollari va paremiologik birliklar tilshunosligiga doir tadqiqotlarda Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqovlarning asarlari muhim o'rin tutadi [5; 7]. Ushbu

olimlar maqollarning semantik, stilistik va badiiy-estetik xususiyatlarini atroflicha tahlil qilgan bo'lsalar-da, graduonimik munosabatlar maxsus tadqiqot obyekti sifatida alohida ko'rib chiqilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot o'zbek paremiologiyasidagi mavjud bo'shliqni to'ldiradi.

SH.Rahmatullayev, Yo'ldoshev B. va boshqa tilshunolar semasiologiya va semantik munosabatlar sohasida olib borgan ilmiy izlanishlar tadqiqotimiz nazariy asosini tashkil etadi [3; 4]. Mirtojiev M. ning hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi sohasidagi tadqiqotlari ham mazkur ishda muhim manba bo'lib xizmat qildi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot induktiv yo'nalishda olib borildi: alohida maqollar tahlilidan umumiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot dizayni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) o'zbek xalq maqollari to'plamlaridan graduonimik birliklarni o'z ichiga olgan namunalarni tanlab olish; 2) tanlangan maqollardagi leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlarni tahlil qilish; 3) graduonimik qatorlarni integral va differensial semalar asosida tavsiflash; 4) graduonimiyaning lingvopoetik funksiyalarini aniqlash.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, komponentli tahlil, semantik maydon va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumot manbalari sifatida O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbek xalq maqollari to'plamlari va paremiologik lug'atlardan foydalanildi. Tadqiqot birlamchi (maqol matni) va ikkilamchi (ilmiy adabiyotlar) manbalarga asoslangan.

Tahlil va natijalar:

1. Hajm va miqdor darajalanishini ifodalovchi graduonimlar.

"Bilganing daryo bo'lsa, bilmaganing dengiz" maqolida graduonimik munosabat "daryo" va "dengiz" leksemalari o'rtasida kuzatiladi. Graduonimik qatorning integral semasi "suv havzasi" tushunchasi bo'lsa, differensial semasi hajm va miqdor belgilaridir: ariq → soy → daryo → dengiz → okean. Dengiz daryoga nisbatan kengroq, chuqurroq va ulkanroq obyekt sifatida tasavvur qilinadi. Maqolda inson bilimining cheklanganligi aynan darajalanish orqali ifodalangan: bilgan narsalar "daryo"ga qiyoslansa, bilmaganlari "dengiz"ga o'xshatiladi. Natijada ma'no ta'sirchanligi kuchayib, kamtarlikka undovchi falsafiy xulosa yuzaga keladi.

"Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi" maqolida "igna" va "tuya" leksemalari hajm jihatidan qarama-qarshi darajalarni ifodalaydi. Igna eng kichik predmetlardan biri bo'lsa, tuya yirik jonzor sifatida tasavvur qilinadi. Kichik teshikdan katta kulfat yoki zarar kirib kelishi mumkinligi aynan shu darajalanish vositasida ta'sirchan ifodalangan. "Ignaning ishini nayza qilolmas" maqolida esa katta predmetning mavjudligi kichik predmet vazifasini bajara olmasligini ko'rsatadi, ya'ni graduonimik qiyoslash orqali har bir narsaning o'z o'rnida qadrli ekanligi ta'kidlangan.

2. Yosh darajalanishiga asoslangan graduonimiyasi.

"Toy mingan ot ham minar" maqolida "toy" va "ot" leksemalari yosh va rivojlanish darajasi bo'yicha darajalanadi: qulun → toy → ot. Integral sema — "ot zotiga mansublik", differensial sema esa yosh va jismoniy kamolotdir. Toy hali to'liq shakllanmagan hayvonni, ot esa yetilgan va tajribali hayvonni bildiradi. Darajalanish asosida tajriba va mahoratning vaqt davomida shakllanishi haqidagi xalqona hikmat ifodalangan. Maqolda graduonimiyasi inson hayotidagi o'sish va kamolot g'oyasini badiiylashtirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

"Ipak yo'g'ida — bo'z qimmat, yigit yo'g'ida — chol qimmat" maqolida "yigit" va "chol" birliklari yosh darajalanishining turli pog'onalarini ifodalab, jamiyatda har bir yosh toifasining o'z o'rnini borligini anglatadi.

3. Vaqt ko'lamini darajalanishi.

"Kunning g'ami sahardan, yilning g'ami bahordan" maqolida vaqt tushunchasi graduonimik qator hosil qiladi: daqiqa → soat → kun → oy → fasl → yil. Bu qatorning integral semasi vaqt tushunchasi bo'lsa, differensial semasi davomiylilik darajasidir. "Kun" va "yil" leksemalari vaqt miqyosi jihatidan farqlanadi. Maqolda vaqt birliklarining darajalanishi hayotiy tajriba bilan bog'lanib, har qanday natijaning muvaffaqiyatli boshlanishiga bog'liqligi haqidagi xulosani yuzaga keltiradi.

4. Imkoniyat, salohiyat va kasbiy mahorat darajalanishi.

"Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning chanog'i yirtilibdi" maqolida laylak va chumchuq obrazlari o'zaro graduonimik munosabat hosil qiladi. Laylak yirik va uzun oyoqli qush bo'lsa, chumchuq kichik qush hisoblanadi. Maqolda imkoniyatlar darajasining turlicha ekanligi va har kim o'z salohiyatiga mos ish tutishi kerakligi ta'kidlanadi. Mazkur maqolda graduonimiyasi faqat hajm jihatidan emas, balki imkoniyat va qudrat jihatidan ham namoyon bo'ladi.

"Zargar ishini miskar o'ng'ay sanaydi" maqolida yashirin graduonimik munosabat mavjud. Zargar va miskar kasblari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, mahorat va noziklik darajasi bilan farqlanadi. Zargarlik yuqori aniqlik va san'atkorlikni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Maqolda murakkab ishning qadriga uni bajarmagan odam yetmasligi ta'kidlanadi.

5. Axloqiy tushunchalarning graduonimik ifodasi.

"Kaptar bo'lib tug'algansan, qarg'a bo'lib o'lma" maqolida graduonimiyasi baholovchi semalar asosida yuzaga kelgan. Kaptar xalq tasavvurida tinchlik, poklik, ezgulik va sadoqat timsoli hisoblanadi. Qarg'a esa salbiylik, badfe'llik, yoqimsizlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda biologik darajalanish emas, balki aksiologik (baholovchi) darajalanish mavjud. Maqol insonni tug'ma ezgu fazilatlarini saqlab qolishga, ma'naviy tanazzuldan ehtiyot bo'lishga chaqiradi.

"Zulm eshikdan kirsas, insof teshikdan chiqadi" maqolida "eshik" va "teshik" birliklari makonning turli darajalarini ifodalaydi. Ushbu darajalanish zulm va insof tushunchalarining qarama-qarshiligi bilan uyg'unlashib, kuchli badiiy effekt hosil qiladi. Bu maqolda graduonimiyasi va antonimiyasi birgalikda qo'llangan.

1-jadval.

O'zbek xalq maqollarida graduonimik qatorlarning tahlili

Maqol	Graduonimik birliklar	Darajalanish turi	Semantik vazifasi
Bilganing daryo bo'lsa, bilmaganing dengiz	daryo – dengiz	Hajm darajalanishi	Bilimning cheksizligi, kamtarlik
Toy mingan ot ham minar	toy – ot	Yosh va kamolot darajalanishi	Tajriba va mahoratning o'sishi
Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi	igna – tuya	Hajm darajalanishi	Kichik sababning katta oqibatga olib kelishi

Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning chanog'i yirtilibdi	laylak – chumchuq	Imkoniyat va hajm darajalanishi	O'z salohiyatiga mos ish tutish
Kunning g'ami sahardan, yilning g'ami bahordan	kun – yil	Vaqt ko'lami darajalanishi	Natijaning muvaffaqiyatli boshlanishga bog'liqligi
Kaptar bo'lib tug'ilgansan, qarg'a bo'lib o'lma	kaptar – qarg'a	Aksiologik (baholovchi) darajalanish	Axloqiy fazilatlarni saqlash, ma'naviy tanazzuldan saqlanish
Zulm eshikdan kirsan, insof teshikdan chiqadi	eshik – teshik	Makon darajalanishi	Zulmning ma'naviy tanazzulga olib kelishi
Zargar ishini miskar o'ng'ay sanaydi	zargar – miskar	Mahorat darajalanishi	Murakkab mehnat qadrini anglatish

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Jadvaldan ko'rinadiki, maqollarda graduonimiya faqat leksik sathda emas, balki konseptual va pragmatik sathlarda ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, "igna – nayza", "igna – tuya", "laylak – chumchuq" kabi birliklar xalq tafakkurida shakllangan obrazli darajalanish namunalaridir.

Maqollardagi graduonimiyaning lingvopoetik funksiyalari.

Tahlil qilingan maqollar asosida graduonimiyaning quyidagi lingvopoetik funksiyalari aniqlandi:

1. Ta'sirchanlikni kuchaytirish funksiyasi. Darajalanish orqali fikrning emotsional-ekspressiv kuchi ortadi. Masalan, "igna – tuya" oppozitsiyasi kichik va katta tushunchalari orasidagi masofani keskinlashtiradi.

2. Obrazlilik yaratish funksiyasi. Graduonimik birliklar xalqona obrazlar hosil qilib, maqolning esda qoluvchanligini ta'minlaydi. "Daryo – dengiz", "kaptar – qarg'a" kabi juftliklar inson tafakkurida aniq tasvirlar uyg'otadi.

3. Baholash funksiyasi. Maqollarda darajalanish vositasida muayyan hodisa yoki shaxsga ijobiy yoki salbiy baho beriladi. "Kaptar – qarg'a" juftligi aksiologik mezonlar asosida insonni baholashga xizmat qiladi.

4. Didaktik funksiyasi. Xalq maqollarida graduonimik qatorlar axloqiy va tarbiyaviy g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. "Toy mingan ot ham minar" va "Laylakning yurishini

qilaman deb..." maqollari yoshlarni kamtarlikka, o'z imkoniyatini bilishga undaydi.

Xulosa va takliflar. O'zbek xalq maqollarida graduonimiya muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. U orqali predmet va hodisalar o'rtasidagi miqdoriy, sifat va qiymat jihatidan farqlar obrazli tarzda ifodalanadi. Tadqiq etilgan maqollarda graduonimik munosabatlar hajm ("daryo – dengiz", "igna – tuya"), yosh ("toy – ot", "yigit – chol"), vaqt ("kun – yil"), imkoniyat ("laylak – chumchuq"), mahorat ("zargar – miskar") va axloqiy mezonlar ("kaptar – qarg'a", "eshik – teshik") asosida shakllangani aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, graduonimiya o'zbek xalq maqollarining semantik tuzilishida muhim o'rin egallaydi hamda xalqning qiyoslash, baholash va umumlashtirishga asoslangan milliy tafakkurini aks ettiradi. Graduonimik birliklar maqollarda nafaqat semantik munosabat hosil qiladi, balki xalq tafakkurining baholash mexanizmini ham aks ettiradi.

Kelajak tadqiqot yo'nalishi sifatida o'zbek xalq maqollarida graduonimiyaning boshqa semantik munosabatlar (sinonimiya, antonimiya, giponimiya) bilan o'zaro ta'sirini o'rganish, shuningdek, qiyosiy-tipologik aspektlarda turli tillar paremiologiyasidagi graduonimik qatorlarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 160 b.
2. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tilining sistem tavsifi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2010. – 240 b.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 312 b.
4. Yo'ldoshev B. Semasiologiya va semantik munosabatlar. – Toshkent, 1998. – 128 b.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 1990. – 486 b.
6. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2013. – 320 b.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 480 b.
8. Hojiyev A. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 198 b.
9. Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 252 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
11. Sarimsoqov B. O'zbek paremiologiyasi. – Toshkent: Fan, 1978. – 88 b.
12. Xolmatova M. Maqollarda ekspressivlikning lingvistik asoslari. – Toshkent: Navruz, 2015. – 104 b.